

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА "РАСТЕНИЕ" В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> "LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> "ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYI VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА**

**АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

**Gulnora Xolmurodova Sattorovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasasi o'qituvchisi,  
E-mail: gulnoraxolmurodova5@gmail.com

**Bo'ronova Mekkamtoş Xoliqulovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasasi o'qituvchisi  
[mexkamtoşb@gmail.com](mailto:mexkamtoşb@gmail.com)

### **INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqola janrining ingliz va o'zbek manzarasidagi o'rni va ahamiyati haqida hamda maqollar tilshunoslikning ko'plab soha vakillari tilshunoslar va tarixchilar, etnograflarning doimiy o'rganish ob'ekti hisoblanganligi haqida so'z boradi. Maqol janrining boshqa janrlardan ajralib turadigan o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bo'lib, bu xususiyatlar maqollarga ohangdorlik, chiroyli mazmun beradi va tinglovchining e'tiborini nutqqa qaratishga ko'mak beradi.

**Kalit so'zlar:** maqol, lisoniy, alliteratsiya, janr, ravonlik, lingvistik muhit.

---

**Gulnora Kholmurodova Sattorovna**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,  
Teacher of the Department of Foreign Language and Literature Higher Courses

**Boronova Mekkamtoş Khalikulovna**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy  
Teacher of the Department of Foreign Language and Literature Lower Courses

### **THE ROLE OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTIC FORMS**

**Abstract:** The article talks about the role and importance of the proverb genre in the English and Uzbek landscapes, and the fact that proverbs are considered a permanent object of research by linguists, historians, and ethnographers in many fields of linguistics. There are specific linguistic features that distinguish the proverb genre from other genres, and these features give proverbs a melodious, beautiful content and help to focus the listener's attention on the speech.

**Key words:** proverb, linguistic, alliteration, genre, fluency, linguistic environment.

---

**Гулнора Холмуродова Сатторовна**

Денауский институт предпринимательства и педагогики,  
Преподаватель кафедры иностранных языков и литературы высших курсов

**Боронова Меккамтош Халикуловна**

Денауский институт предпринимательства и педагогики,  
Преподаватель кафедры иностранного языка и литературы младших курсов

## РОЛЬ ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ФОРМАХ

**Аннотация:** В статье говорится о месте и значении жанра пословицы в английском и узбекском ландшафте, а также о том, что пословицы считаются постоянным объектом исследования лингвистов и историков, этнографов во многих областях языкознания. Жанр пословиц имеет свои языковые особенности, отличающие его от других жанров, и эти особенности придают пословицам мелодичное, красивое содержание и помогают сосредоточить внимание слушателя на речи.

**Ключевые слова:** пословица, языкознание, аллитерация, жанр, беглость речи, языковая среда.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N42>

**Kirish.** Maqol janriga aniq ta'rif berishda ko'pchilik olimlar ikkilanishlar, qiyinchiliklarga duch kelishgan. Ba'zi mashhur olimlardan Taylor Whiting va Jones maqolga ta'rif berish imkonsiz va o'rinsiz deb ta'kidlashgan. Taylor fikriga ko'ra maqolga ta'rif berish qiyin, hatto imkonsiz "incommunicable quality which tells us that whether sentence is a proverb and the other is not" deb aytilgan bo'lsa, maqolga ta'rif berishni keragi yo'q, chunki biz hammamiz maqol nimaligini bilamiz deb hisoblagan. Jones fikriga ko'ra maqolga ta'rif berishda haqiqatdan ham qiyinchilik va imkonsizlik mavjud va u maqolga "an expression we recognize as proverbial" ya'ni "u maqol sifatida bilgan iboramizdir"- deb ta'rif bergan. Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida matn linguistikasining muhim o'rganilayotgan obyekti hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu maqolada maqol janrini taqqoslash, tasniflash hamda qiyosiy metodlar orqali ifodalashni ko'rish mumkin. Maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Masalan: Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'ozil Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjud bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Biz bilamizki, maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida ifodalaydi, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorligi ustunlik qiladi. Biroq, qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib borishini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, teran mazmunga ega bo'lgan bir janri sanaladi. Maqollar asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik ilmiy-amaliy adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Maqollarning vazifalarini birma-bir ko'rib chiqishimiz mumkin:

Maqollar-ijtimoiy me'yorlarning muhim bir qismi. Har bir millat va jamiyatning o'zining estetik madaniyati, xulq-atvor me'yorlari mavjud. Maqollar mana shu madaniy me'yorlarni bir maromda tutib turuvchi va keyingi yosh avlodga yetkazuvchi qo'llanma hisoblanadi. Masalan : " Ota rozi-Xudo rozi".

Maqollar-maslahatchi bo'lishi mumkin. Maqollarning muhim sifatlaridan biri uning yaxshi maslahatchi ekanligida. Unda insonlarning yuz yoki ming yillik hayot tajribasi xulosalari aks etgan bo'lib, xavfdan oldindan ogohlantiradi, to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Maqollar-nutq bezagi. Maqollar og‘zaki va yozma nutq bezagi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutqda nasriy va she‘riy usulda yozilgan asarlarda qo‘llanilib asardagi fikrga hissiy bo‘yoq berib, o‘quvchiga fikrni chiroyli, ta‘sirchan yetkazishga xizmat qiladi.

**Muhokama.** Maqollarda tugal fikr, xulosa chiroyli tarzda ohangdor so‘zlar, qofiya yordamida ifodalanadi. Adabiyotning boshqa janrlarida o‘quvchi masalan she‘r, g‘azal, masal yoki butun bir hikoya, romanlarni o‘qib oxirida xulosa chiqaradi. Maqollarda aksincha o‘quvchi yoki tinglovchiga tugal xulosa aytiladi va tinglovchi ko‘z oldida voqea yoki ma‘lum bir xalqni urf-odati, yashash tarzi gavdalanadi. Shuning uchun ham maqollarda pand-nasihati, didaktiklik ustuvor vazifa hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek maqollarining tuzilishida birmuncha farq bor desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ingliz maqollarining ayrimlari alohida tuzilish formulasiga ega. Ko‘pchilik maqollarga xos bo‘lgan quyidagi formulalarni ko‘rish mumkin.

1. One X is worth a lot of Y Ya‘ni (X) narsa ko‘p (Y) qiymatga ega.
2. One picture is worth ten thousand words
3. One volunteer is worth many pressed men.

O‘zbek tilida ham xuddi shunga o‘xshash tuzilishga ega maqollar uchraydi.

1. “Bilagi zo‘r-birni, Bilimi zo‘r-mingni yiqitar”.
2. Qayerda X bo‘lsa, Y o‘sha yerda

Ingliz tilida: Once a lady, always a lady; Once a thief, always a thief; Once a copper, always a copper; Once a priest, always a priest.

O‘zbek tilida “Bo‘rining har doim og‘zi qon”.

ya‘ni bo‘ri yesayam, yemasayam har doim og‘zi qon, yegan degan gumonda.

bo‘lishi, bir marta o‘g‘rilik qilgan odam ham har doim o‘g‘rilikda gumonda bo‘ladi.

Ingliz tilida: Like father, like son. O‘zbek tilida esa ma‘nosi xuddi shunday lekin tuzulishida “o‘xshamoq” ya‘ni “like” so‘zi qatnashmagan maqollar uchraydi: “Ot o‘rnini toy bosar” degan ma‘noda.

Shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma‘nolarni anglatgan.

Masalan, tuz so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z to‘g‘ri, odobli; dala, tekislik ma‘nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan: Qiz saqlasang, tuz saqla.

Shuningdek, mehnat so‘zining azob-uqubat, baxtsizlik ma‘nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin: Mehnat ham egiz-egiz, Davlat ham egiz-egiz [Mirzayev, 2005: 512].

Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma‘noda yoki ham ko‘chma ma‘noda, ham o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir [Бердиев Х, 1984: 11].

Maqollarda fikrni lo‘nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta‘sirchanligini ta‘minlashda juda qo‘l keladi.

**Natija.** O‘zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi, [Ўзбек халқ мақоллари, 1981: 5] ammo bu tushunchani ifodalash uchun o‘ndan ortiq atama qo‘llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so‘zi, donishmandlar so‘zi, donolar so‘zi, yaxshilar so‘zi, burungilar so‘zi, ulusning so‘zi, avomunnos masali, hikmatli so‘z va hokazo. Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal atamaları deyarli farqlanmaydi. Hatto ba‘zi manbalarda paremalarning turlari sifatida farqlangan bo‘lishiga

qaramay, maqol va matal terminlari izohi chalkashtirib yuborilgan o‘rinlarni ham uchratish mumkin [Бердиёров Х, 1984:12]. Mumtoz adabiyotda maqol atamasi so‘z, nutq, gap tushunchalarini anglatgan va maqol tushunchasini ifodalash uchun esa masal istilohi qo‘llangan.[Бердақ Юсуф, 2010: 237]. Masalan, mumtoz she‘riyatda maqol qo‘llanayotgan matndagi masaldurkim, masalkim, masal budur kabi birikmalar maqol ma‘nosini anglatib keladi.

Maqollar xalq aql – idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa – voqealarga munosabatini ifodalaydi. “Maqol kundalik hayotda kishilarning bir birlariga munosabatlarida yaratiladi”. Xalq maqoli –xalqning mulkidir. Maqol qayg‘usi – xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi – xalq g‘azabi, maqol kulgusi – xalq kulgusi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Shu o‘rinda shuni ta‘kidlash mumkinki, maqol yaratmagan birorta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo‘q bo‘lmasa kerak. Har bir xalqing o‘z udumi bo‘lgani singari maqollarda ham xalq tiliga moslab aks etilgan. Soha olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan va bugungi kunda ham davom ettirilmogda. Shu bilan birga maqollarni ham alohida turkum va yo‘nalishlarga ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan: do‘stlik, vatanga sadoqat, vafodorlik, ilm va ko‘plab yo‘nalishlari bor. Do‘stlik haqidagi maqollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, avvalo maqollar turli xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashini ham inobatga olishimiz zarur.

Dunyoda hamma xalqlarning tillarida ham do‘stlik, birodarlik, hamjihatlik va hamkorlik to‘g‘risida juda ko‘p maqollarni uchratamiz mumkin. Bu maqollar o‘sha xalq udumi va urf-odati orqali paydo bo‘lgan deyish mumkin. Sharq xalqlarida ham do‘stlik to‘g‘risida ajoyib maqollar yaratilgan. Masalan: Boshqird maqoli “Xalqlarning do‘stligi – ularning boyligidir” yoki Gruzin maqoli “Daraxt tomiri bilan, odam do‘stlari bilan” , Tatar maqoli “Qushning kuchi qanotida, odamning kuchi do‘stlikdadir ” degan g‘oya ilgari surilganligini uchratishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan maqollarda shakl o‘zgargani bilan mazmun saqlangan ya‘ni, bir xil g‘oya va maqsadga ilgari surilgan deyish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to‘g‘riligi isbotlangan holda, qayta-qayta ishlanib vujudga keladi [Қурбонова, 2010:137]. Mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman” degan edi. Maqollarning yana bir muhim jihatlaridan biri ulardagi ibratlilik. Maqollarda har doim ibratli fikr aytiladi.

#### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 40 b.
2. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: «Aloqachi», 2008. – 66 b.
3. O‘zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzaev...) – Toshkent: 2005. – 512 b.
4. Berdiyev X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent: 1983. – 97 b.
5. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. – USA: Lawrence Erlbaum, 1997. – 277 p.
6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 303 b.
7. Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Toshkent: 2010. – 237 b.
8. Qurbonova S. Hamid Olimjon she‘rlarida xalq maqollaridan foydalanish // O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari. – Farg‘ona: 2010. – 137 b.
9. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: 1981.

10. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 398 b.
11. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. – New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. –103.
12. Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna. (2023). NEO-VICTORIAN NOVEL SCENES AND CHARACTERISTICS IN “THE FRENCH LIEUTENANT’S WOMAN” BY JOHN FOWLES. FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 2(7), 65–68.
13. Содикова, Б. (2023). ПОЯВЛЕНИЕ ОПРЕДЕЛЕННОГО ТИПА САМОРЕФЛЕКСИВНОЙ МЕТАФИКЦИИ В РАБОТЕ МАНТИССА. Предпринимательства и педагогика, 5(1), 64–69.
14. Содикова, Б., & Бобожонов, Д. (2022). Ўзбек адабиётшунослигида модернизм ва постмодернизм оқимида билдирилган таснифлар. Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, (1), 61–62.
15. Sodikova, B. (2022). JOHN FOWLES AS A WRITER OF EXISTENTIALISTIC AND REALISTIC LITERARY TRENDS, AND HIS PHILOSOPHICAL AND PSYCHOLOGICAL VIEWS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(1), 176-184.
16. Sodikova Bakhtigul Ibodyullayevna. (2023). Several reason, power and narrative technique in the novel of “The Collector”. Journal of Innovation in Education and Social Research, 1(4), 78–86.
17. GS Xolmurodova “ Qarindoshlik haqidagi maqollarning kognitiv tahlili” -: Вестник магистратуры, 61-62, 2021



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).